

FAOLIYATI VA NUTQNI EGALLASHI

ASHUROVA ZUXRA XOLMATOVNA

BAXTIYOROVA OZODA AKMAL QIZI

GAFFOROVA SHAHNOZA ABSATOVNA

ALIMARDONOVA UMIDA ERKINOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning go'daklik chog'idagi nutqning egallashi, psixik taraqqiyoti, oilaviy munosabatlarida, kattalarga taqlid qilishlari va ilk nutqlarining shakllanishi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: Psixika, xotira, emotsiya, mimika, nutq, taqlid, refleksiya, histuyg'u

Go'gakning harakatlari va faoliyati. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda harakat sezgilari boshqa sezgilarga nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'z harakat larini boshqara olmaydi. Bolani yo'rgakdan yechib qo'ygan paytda u juda ko'p tartibsiz harakatlarni qiladi. Uning hamma yog'i (qo'llari, barmoqlari, oyog'i, oyoq barmoqlari, ko'zлari, boshi) harakatlanadi. Lekin bolaning bu harakatlarida mutlaqo moslik, tartib bo'lmaydi. Bolaning o'z harakatlarini idora qilishi, ya'ni harakat sezgilarining rivojlanishi bosh miya harakat sohasidagi nerv tolalarining miyelinizatsiya qilinishi bilan bog'liqdir. Bu narsa bolaning 2–3 oylik davridan boshlanadi. Shuning uchun bola 2–3 oylik davridan boshlab o'z harakatlarini idora qila boshlaydi. Masalan, ana shu davrdan boshlab bola unga uzatilgan narsalarga qo'lini cho'zadigan, ushlashga intiladigan bo'ladi. 2–3 oylik bolani qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko'taradi, 3–4 oylik bola boshini bemalol ushlab oladi, 4–5 oylik bola esa o'z gavda sini tik holda ushlab

tura oladi. 6–7 oylik bola mustaqil o‘tira oladi. Ana shu tariqa ilk yosh dagi bolaning harakat sezgilari rivojlanib boradi.

Bolalarda idrokning rivojlanishi sezgi a’zolarining, ya’ni analizatorlarning tobora takomillashishi bilan bog‘liqdir. Lekin, idrok faqat sezgi a’zolarigagina bog‘liq jarayon emas. Idrok jara yonida sezgilardan tashqari odamning butun turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Shuning uchun idrokning rivojlanishi turmush tajribasining tobora orta borishi, odamning turli bilimlarga ega bo‘lishi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Go‘dak bolalarning uncha-muncha idrok qilishlari asosan uch-to‘rt oylik davrdan boshlansada, biroq, idrok qiladigan narsalarining doirasi hali juda tor bo‘ladi. Bu davrda bola ko‘z o‘ngidagi yaltiroq yoki tebranib, harakatlanib turuvchi narsalarni idrok qila oladi. Bola to‘rt-besh oylik bo‘lib, narsalarni qo‘llari bilan ushlaydigan bo‘lgach, uning idroki mazmun jihatidan boyib, ancha takomillashadi. Buning asosiy sababi shundaki, ko‘rish hamda eshitish sezgilariga endi barcha teri sezgilari ham qo‘shiladi. Natijada bola narsalarni har tomonlama to‘la idrok qila boshlaydi.

Bola yarim yoshga to‘lib, o‘zi mustaqil o‘tira boshlagach, uning idroki yana ham tezroq rivojlanadi. Bunda birinchidan, uning ko‘rish doirasi ancha kengayadi, ikkinchidan esa, narsalarni sinchiklab timirskilab ko‘rish imkoniyati ortadi. Bu davrda bola atrofidagi narsalarni (xususan o‘ziga tegishli narsalarni) qayta-qayta idrok qilish tufayli ularni bir-biridan farqlaydigan, o‘ziga tegishli narsalarni taniydigan bo‘lib qoladi. Bola emaklab, undan so‘ng yura boshlagach, uning tevarak atrofidagi narsalarni idrok qilish imkoniyati yanada kengayib ketadi. Bola xohlagan narsa sining oldiga borib, uni qo‘liga olib ushlab ko‘radi, atrofidan aylanib qaraydi, iloji bo‘lsa, albatta yalab ham ko‘radi.

Bolalarda diqqat juda erta rivojiana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko‘rinmasa ham, oradan sal o‘tmay, ya’ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko‘rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har xil kuchli qo‘zg‘atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug‘lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o‘ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, «shaqir-shuqur»ga qulq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo‘la boshlaydilar. Bu

yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalg qila boshlaydi. Bolaning ko‘z o‘ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo‘lsa, bola unga shunchalik ko‘p e’tibor beradi.

Xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlna boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko‘rina bosh laydi. Buni biz bola o‘ziga tanish bo‘lgan narsani ko‘rganida qiladigan harakatlaridan ko‘rshimiz mumkin. Masalan, bola o‘ziga yaqin odamni ko‘rganida unga talpinadi yoki notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi. 1 yoshga yaqin bolada xotiraning murakkab turlari, ya’ni eslash vujudga kela boshlaydi. Bolalar bu davrdan boshlab ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni eslay oladigan bo‘ladilar. Bunda bolalardagi tasavvurlarning rolini hoyatda kattadir. Tasavvurlar tufayli bolalar o‘tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko‘z o‘ngida bo‘lmagan narsaning nomini aytsangiz, u ko‘zlari bilan atrofga qarab shu narsani izlay boshlaydi.

Bola xotirasining rivojlanishida nutqning o‘sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarni faqat bevosita ko‘rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo‘ladi. Bundan tashqari kattalardan so‘rab bilib olish, eshitish orqali ham o‘z xotiralarini boyitadilar.

Bolaning atrofidagi katta odamlar onasi, otasi, akasi, opasi kabilar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o‘rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqqa boshlaydi. Yangi tug‘ilgan bolada nutqi bo‘lmasada ularda qandaydir ovoz chiqarish, ya’ni yig‘lash xususiyati bo‘lib, bu xususiyat tashqi va ichki muhitdan keladigan signallarga (ochlik, tashnalik) bog‘liq bo‘ladi. Ortiqcha qattiq tovushlar ham bolani cho‘chitib yuboradi. Bola 2–3 haftalik bo‘lgach, unda tovushlarga nisbatan elementar tarzda bo‘lsa ham reaksiya yuzaga kela boshlaydi. Undan keyingi davrda esa, ya’ni bola 2–3 oylik bo‘lgach tovush bilan tovush chiqarayotgan man

ba o‘rtasida assotsiatsiya maydonga keladi. Bunda bola tovush eshi tilayotgan tomonga qarab boshini bu radigan bo‘ladi.

Ilk yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga kat ta ta’sir qiluvchi momentlardan biri atrofidagi kattalar ning nutq orqali qiladigan munosabatlariga ijobiy qarash laridir. Bolalar borgan sari katta odamlar bilan ko‘proq munosabatga bo‘lishga intila boshlaydi. Katta odam larning gaplariga taqlid qiladigan bo‘ladi. Ana shu tariqa sekin-astalik bilan bolaning tili chiqqa boshlaydi. Bola 6 oylik bo‘lgach ayrim tovushlarni birlashtirib «aya», «a yya», «da-da» kabi so‘zlarni qayta-qayta aytadigan bo‘ladi. O‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bolalarning so‘zlarini tushunishlari har bir so‘zni ifodalab beruvchi to vushlarning aniq idrok qila olish lariga emas, balki tovushlar ning intonatsiyalarini payqab ola bilishlariga asoslanadi. Masa lan: kichik yoshidagi bolaga «chapak ka xo-xo chapakka» deb, chapak chalishga o‘rgatiladi. Ana shu so‘z aytishi bilan bola chapak chalaveradi. Bordiyu ana shu so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib qo‘ysak bola payqamaydi. Bolalar so‘zlarini ifoda lovchi tovushlarni sekin-astalik bilan farq laydilar. Bolalar bi ladigan so‘zlearning miqdori turli bolalarda turlicha bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish lozimki, oiladagi ikki tillik muhit, albatta bolaning tili chiqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bola har ikkala tilni ham barobar egallay boshlaydi va qaysi tilda gapirishni bilmaydi. Ana shuning uchun bola yoshlik chog‘ida o‘z ona tilini egallahshi kerak. Ikkinci til ona ti li o‘zlashtirilgandan so‘ng egallay boshlansa, yaxshi bo‘ladi.

Olti-yetti oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo‘la boshlaydi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli juda kattadir. Bola juda ko‘p harakatlarni va nutqni asosan taqlid qilish orqali egallaydi. Bolani besh-olti oyligidan boshlab nutqni tushu nishga o‘rgata boshlash lozim. Buning uchun bolaga o‘yinchoq yoki biron narsani bir necha marta nomini aytib ko‘rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba’zi narsalarning nomi aytilganda u ko‘zları bilan shu narsani qidirib topadigan bo‘ladi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshлага nidan da rak beradi. Bola nutqni ozmi-ko‘pmi tushuna bosh lagandan so‘ng unga faqat narsalar ning nomini emas, balki ayrim sodda hara katlarning ham nomlarini o‘rgata boshlash 261 lozim. Harakatning nomini og‘zaki takrorlab,

ayni vaqtda shu harakatning bajarili shini ham bir necha marta ko'rsatilsa, bola harakatning nomini eshi tish bilan uni bajarishga o'rganadi. Masalan, «chapak-chapak» deb takrorlab turib chapak cha linsa, bola shu so'z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki bolaga «assalomu alaykum» deb ta'zim qilib ko'rsatilsa, bola shu so'zni eshitishi bilan ta'zim qila digan bo'ladi. Bola ayrim so'zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko'proq aloqada bo'lishni xohlaydi. Ana shundan foydalanib, bola bilan imkonim boricha ko'proq munosabatda bo'lishga, uning nutqini o'stirishga harakat qilish lozim. Buning eng oson yo'li bola bilan shug'ullanayotgan vaqtda unga eng sodda so'z elementlarini to'g'ri ayta bilishni o'rgatishdir. Chunonchi, kuchuk ning rasmini ko'rsatib, «manा, vov-vov», mushukning rasmini ko'rsatib, «manа, miyov-miyov», xo'roz yoki tovuqning rasmini ko'rsatib, «manа, quq-qu» deyish kerak. Bunda bolalar «vov-vov», «mi yov-miyov», «quq-qu» kabi so'z elementlarini ravon talaffuz qilishga o'rganadilar. Bundan tashqari 9–10 oylik bolalarga o'z tana a'zolarining nomlarini ham o'rgata boshlash kerak. Bolaga – «manа burni», «manа og'zi», «manа ko'zi», «manа qoshi», «manа qo'li» deb bir necha marta takrorlab ko'rsatilgandan keyin bola o'z a'zolarining nomini aytish bilan ularni birin-ketin ko'rsatadigan bo'ladi. Keyinchalik bolalarda ana shunday sodda so'zlarni umumlashtirish ko'nikmasini ham hosil qilish kerak. Bolaga «Oyingni ko'zi qani?», «Qo'g'irchoqning burni qani?», «Akangni qo'li qani?» kabi savollar berilsa, bola bu a'zolarni to'g'ri ko'rsatishga o'rganadi.

Go'dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jara yoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta'sir o'tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi, ularga qichqiradi va boshqa harakatlar. Mazkur holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishidan dalolat beradi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunishi rivojlanadi. Bolaning hamkorligidagi o'yin faoliyati ham, his-tuyg'uga berilishi ham nutq va faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bola juda ko'p harakatlarni taqlid qilish asosida egallaydi. Bolani 5–6 oylikdan nutqni tushunishga o'rgatish lozim. Buning uchun bolaga o'yinchoq yoki biror narsaning

bir necha marta nomini aytib ko'rsatish kerak. Ke yinchalik bolaga ba'zi narsalarning nomi aytilganda, u ko'zлari bilan shu narsani qidirib topadi.

Bola dastlabki paytlarda tilga tushuna boshlashi katta odam larning talaffuz-intonatsiyalari va bola ga ko'rsatib qiladigan ishora-harakatlari bilan bog'liq bo' ladi. Shuning uchun hali yoshiga to'lmagan bolalar har bir so'zni shu so'z orqali ifodalangan aniq narsalar bilan bog'lay olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, yoshiga yetmagan bolalarda ayrim so'zlarni tushunish hali ikkinchi signal darajasiga (ya'ni signalning signali darajasiga) ko'tarilgan emas. Yoshiga yetmagan bolalar so'zlarni shu so'zlar orqali ifodalangan narsalar bilan assotsiativ tarzda bog'lash orqali emas, balki intonatsiya va imo ishora, harakatlar orqali tushunadilar.

Agar go'dak 3–4 oyligidan «gu-gu»lashga intilsa 5–6 oyligida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishning oxirgi bosqichi 9–10 oyligidan boshlanadi. Tadqiqotchi F.I. Fratkina kattalarning go'dakka qaratilgan nutqidan quyidagicha ta'sirlanish holatlarini aniqlagan:

- 1) nomi aytilgan buyumga javob tariqasida burilib qarash. (7–8 oyligida);
- 2) turmush tajribasida egallagan harakatlarini kattalar eslatishi bilan bajarishga intilish (8–9 oyligida);
- 3) kattalarning nutq orqali ko'rsatmasidan oddiy nutq topshiriqlarini bajarish (9–10 oyligida);
- 4) kattalarning nutq orqali ko'rsatmasi bo'yicha zarur predmetni tanlab olish (10–11 oyligida);
- 5) mumkin emas taqiqlovchi so'z yordamida harakatni to'xtatish (12 oyligida).

Go'dakdan o'zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilishi, harakatni amalga oshirishi murakkablashib boraveradi. Bular aqliy imkoniyatlar darajasiga bevosita bog'liq. 1 yoshgacha davr nutqgacha davr deb ataladi. Bu davrda go'dak bosh miya yarimsharlari po'stida ikkinchi signallar sistemasi faoliyati bilan bog'liq anchagina ishlar ni, ya'ni nutq taraqqiysi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni amalga oshiradi.

Nutqni tushunib idrok qilish kunsayin ortadi. U bir nimani olishni so‘rashni, aytishni xohlaydi, asta-sekin birinchi so‘zlar (10–12 ta gacha) paydo bo‘ladi. Bolalar nutqining o‘sishi ular idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Barcha sezgi a’zolari go‘dak hali onaning qornidalik paytidayoq ancha takomillashgan bo‘ladi. Shuning uchun bola tug‘ilishidan boshlaboq uning barcha sezgi a’zolari tashqaridan va ichki muhitdan bo‘ladigan ta’limotlarni aks ettirish qobiliyatiga egadir. Masalan: o’n kunlik bola ko‘z qarashini biron yorug‘lik manbai (elektr lampochkasi) ustida to‘xtata oladi. Bir oylik chaqaloq unga engashib qarab turgan (yuzini yaqin olib kelib) onasining chehrasiga o‘z ko‘z qarashlarini uzoq vaqt to‘xtata oladi.

Ko‘rish sezgisi chaqaloq bolalarda juda tez rivojlanadi. 2 oylik bola sekin harakat qilayotgan narsani ko‘z qarashi bilan kuzata oladi. 4 oylik bola esa ko‘rish emas, narsalarga aktiv qaray oladigan bo‘lib qoladi. U qarayotgan narsalari turli hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Go‘dak bolalarda ko‘rgan narsalarini tanish 5–6 oylik davrda yuzaga keladi. Bola dastavval o‘zi bilan eng ko‘p munosabatda bo‘ladigan odamni, ya’ni onasini tanib oladi. Sekin-asta atrofdagi boshqa yaqin odamlarni tanib oladi. Buni biz kichik bolalarning uyiga begona odam kelganda unga uzoq tikilishi va yotsirashidan bilamiz.

Bolalarda ranglarni sezish juda erta ko‘rina boshlaydi. Masalan: professor N.I. Krasnogorskiyning o‘tkazgan tajribalariga ko‘ra, ranglarni farqlash bolalarda 3–4 oylik davrdan boshlab ko‘rina boshlaydi. Bola har xil rangli butilkachalardan ovqatlantirilgan (sut emizilgan), lekin faqat sut qizil butilkadagina berilgan. Oradan biroz vaqt o‘tgach, bola faqat qizil rangli butilkagagina reaksiya qiladigan, ya’ni faqat qizil butilkadagi emizikni og‘ziga oladigan, boshqa butilkalarga esa befarq qaraydigan bo‘lgan. Bu tajriba bolalarda ranglarni sezish va farqlash juda erta hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ilk yoshdagagi bolalarda eshitish sezgisi ham juda erta ko‘rina boshlaydi. Lekin bola tug‘ilgandan so‘ng nechanchi kundan boshlab eshita boshlashini aniqlash qiyin. Yangi tug‘ilgan bola 4–5 kun davomida hech narsani eshitmaydi.

Buning sababi shundaki, yangi tug‘ilgan bolaning o‘rta quloqlari qorindalik paytda suyuqlik modda bilan to‘lib qolgan bo‘ladi. Ana shu suyuqlik modda tugamaguncha havo to‘lqinlari bola quloqlarining nog‘ora pardasiga borib yetmaydi. 10–15 kunlik bola qattiq tovushlarga reaksiya qila boshlaydi. Buni biz qattiq tovush chiqqan paytida (masalan, bolaning quloqlariga yaqin joyda qattiq chapak chalinsa yoki eshik qattiq yopib yuborilsa) bola ning cho‘chib tushishidan bilamiz.

2–3 oylik bolalar taqir-tuqurga quloq soladigan bo‘lib qoladilar. Masalan, yig‘layotgan bolaning oldida shaqildoq shaqillatilsa, bola yig‘idan to‘xtab quloq sola boshlaydi. 3–4 oylik bolalar faqat eshitishgina emas, balki tovush chiqayotgan tomonga boshlarini buradigan bo‘ladilar. Ana shu davrdan boshlab bolalarda turli tovushlarni farqlash ham yuzaga kela boshlaydi. 4–5 oylik bola onaning tovushini boshqa odamlarning tovushlaridan bemalol farqlay oladigan bo‘ladi. Tovush larni farqlash qobiliyati nutq tovushlarini va undan so‘ng ayrim so‘zlarni o‘zgartirish uchun asos bo‘ladi. Eshitish sezgisining normal rivojlanishi ilk yoshdagи bolalarning nutqni egallashlari (til chiqishi) uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega. Eshitish sezgisi bola bilan xususan kattalar munosabatda bo‘lganlarida jadal rivojlanadi. Shuning uchun ilk tarbiyachilari kichik bolalar bilan nutq orqali ko‘proq munosabatda bo‘lishlari kerak.

Bolalarda hid, ta’m va teri sezgilari ham go‘daklik davri dan boshlab tez rivojana boshlaydi. Agar 2–3 oylik bola ning emizigiga qo‘lansa (yoqimsiz) hid tarqatuvchi biron narsa surtib qo‘yilsa, bola bunda betoqatlanib, lab-lunjlarini bujmaytira boshlaydi. Ta’m sezgisi ham deyarli shu davrdan boshlab yaqqol ko‘rinadi. Chunonchi, ona sutiga o‘rganib qolgan bolaga biroz shakar solib shirin qilinadigan sigir suti berilsa, emgisi kelmaydi. Ana shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, ilk yoshdagи kichik bolalarda hid va ta’m sezgilari yaxshi ishlaydi.

Teri sezgisi bolalarda tug‘ilgan paytlaridan boshlab mavjud dir. O‘tkazilgan tajribalarning ko‘rsatishicha, biron narsaning tekkanini sezish (ya’ni tuyish organi) go‘dak bolalarda katta odamlarga qaraganda ham o‘tkirroqdir. Bundan tashqari, ilk yoshdagи kichik bolalar haroratga nisbatan ham juda sezgir bo‘ladilar. Ular cho‘miltirilayotgan suvning salgina isib yoki salgina sovib

qolganini darhol sezadilar. Ilk yoshdagi bolalarning hid, ta'm va teri sezgilarini takomillashtirish yuzasidan maxsus ishlar (mashqlar) olib borilmaganligi tufayli bu sezgilar nisbatan sekin rivojlanadi. Ilk yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlari uchun harakat sezgisining ahamiyati juda kattadir. Go'dak bolaning juda ko'p xilma-xil harakatlari ichida uning qo'l ha rakatlari juda katta rol o'ynaydi. Bola biron narsani qo'li bilan ushlashga o'rganganidan so'ng uni rosa timirskilab ko'radigan bo'ladi. Lekin bola biron narsani ushlashi uchun dastavval u narsani atrof-muhitdagi boshqa narsalardan yaqqol ajratishi kerak. Buning uchun bola qo'l va ko'z harakatlarini moslashtirib idora qila olishi lozim. Bunday murakkab harakatlarni bola darhol egallay olmaydi. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, bola murakkab qo'l harakatlarini ilk yoshida egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
2. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. - 344 b.
3. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O 'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
4. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
5. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
6. Melikboboyevich, S. U., Davrbek o'g'li, M. D., & Azamat Jo'rakul o'g, X. (2024). SHAXSDA SALBIY TUZILMALARNING PAYDO BO

ISSN:3060-4567 Modern education and development

‘LISHI. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR

JURNALI, 2(2), 218-228.